



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 NURATDINOVA ILMIRA MURATBAYEVNA**
Inson huquqlarini ta'minlashda qonun ustuvorligining ahamiyati
- 14 AMINOV DALERJON ALISHER O'G'LI**
Norma ijodkorligi tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni
- 20 ГУЛЯМОВ ФИРУЗ РАВШАНОВИЧ**
Совершенствование антикоррупционной экспертизы проектов для принятия законов прямого действия
- 32 ПАЛАЧЕВА МАДИНА БАХТИЁР КИЗИ**
Актуальные проблемы государственной политики в сфере законодательных гарантий прав человека
- 40 БУРХОНОВ ШОХРУХБЕК ШУХРАТБЕК УГЛИ**
Особенности и отличительные черты правовой культуры на современном этапе развития
-
- 46 ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH**
Yangi O'zbekistonning nufuzi yuksalishida yangi notariatning o'rni
- 51 YUSUPOV SHERZOD ALISHEROVICH**
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
- 59 NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**
Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat etishning nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlili
- 67 АЗИМОВА НИЛУФАР ПУЛАТЖАНОВНА**
Совершенствование правового механизма оценки эффективности деятельности органов государственной власти в Узбекистане
- 77 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi
- 85 PARPIXO'JAYEV NUSRATULLO NIG'MATULLO O'G'LI**
Xalq deputatlari kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashning huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 93 KOCHKINOVA HOLIDAXON MAKSU DALI KIZI**
Особенности оценки эффективности органов местного самоуправления
- 101 NASRETDINOVA OLTINOY PO'LATOVNA**
Davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar
- 107 SALAYDINOV UMID MUHIDDIN O'G'LI**
Prokuratura organlari va vakillik organlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha xalqaro tajribaning tahlili
- 112 QOSHJANOVA DARIXA SMETOVNA**
Ma'muriy organlarning qarorlari ustidan shikoyat qilish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari
- 120 ATADZHANOV TIMUR ATABAEBICH**
Критерии оценки деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 129 QO'CHQOROV ABBOSJON BAHROMJON O'G'LI**
Muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi: O'zbekiston va xorij misolida
- 135 RASULOV ASLIDDIN NURIDDINJON UGLI**
Вопросы либерализации деятельности СМИ в условиях развития Республики Узбекистан
- 141 SOBITXONOV JOXONGIR ZUNNURXON Y'GLI**
Ислом банклари ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ўзига хос жиҳатлари
- 151 UTAYEVA MOHIPARI SHAXRIYOROVNA**
Raqamli bozorda ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish muammolari: xorijiy tajriba
- 158 NAEEM ALLAH RAKHA**
Governance of digital economy

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 163 NORBOYEV JO'RABEK ERKIN O'G'LI**
Fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik: maqomi, asoslari va tartibi
- 170 XOLIQOV SHOHRUX IKROMALI O'G'LI**
Xorijiy davlatlarda oilaviy mediatsiya institutining qiyosiy huquqiy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 178 **ABDURAYIMOV SARDORJON QAHRAMON O'G'LI**
Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan
jinoyat ishini tugatish tartibi
- 183 **TILLAYEV DO'STMUHAMMAD NE'MATJON O'G'LI**
Jazo tayinlashning umumiy asoslari: tahlil va taklif
- 190 **DJUMABAYEVA GULNAZA DJANABAYEVNA**
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida jinoyatchi
shaxsining umumiy tavsifi
- 195 **МАМАДЖАНОВА САБИНА УЛУГБЕК КИЗИ**
Ответственность за stalking в некоторых
зарубежных странах
- 204 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Институт освобождения несовершеннолетних
от уголовной ответственности или наказания
в англосаксонской правовой семье

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 213 **МУСУРМАНОВ ИСКАНДАР УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**
Некоторые правовые вопросы применения
блокчейн-технологий в международной торговле
- 226 **АБДУЖАББОРОВА ФАРЗОНА**
Проблемы миграции Европы в современных
условиях

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 233 **SHAXRIYOROV HAMIDULLA SHUXRAT O'G'LI**
Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka
tortish masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilik
muammolari
- 241 **ХАМРАЕВА НОДИРА ГАНДЖАБАЙ КИЗИ**
Некоторые аспекты пенализации уголовных
наказаний за коррупционные преступления
юридических лиц

UDC: 347.9 (045) (575.1)

FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLAR TOMONIDAN KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANIGA MUROJAAT ETISHNING NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

Nurmamatova Noila Doniyorovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
e-mail: nurmamatovanoila@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5093-0300

Annotatsiya. Mazkur maqolada konstitutsiyaviy sudlov organlariga individual tarzda murojaat qilish bilan bog'liq masalalar nazariy jihatdan o'rganilib, xorij mamlakatlarida individual konstitutsiyaviy murojaatlarning turlari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Individual konstitutsiyaviy murojaatlarning bevosita va bilvosita ko'rinishlari mavjud bo'lib, maqolada fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat qilishning yuqorida ta'kidlangan ko'rinishlarining bir qancha turlari tahlil etilgan. Individual konstitutsiyaviy murojaatlarning turlari nazariy jihatdan ochib berilgan hamda markazlashgan yoki tarqoq konstitutsiyaviy nazorat o'rnatilgan mamlakatlarda individual konstitutsiyaviy murojaatlarning samaradorlik darajasi va murojaat turlarining kamchiliklari har tomonlama tahlil etilgan. Bundan tashqari, maqolada individual konstitutsiyaviy murojaatlarning qaysi turlarida fuqaro va yuridik shaxslarning fundamental huquqlari konstitutsiyaviy sudlov organi tomonidan samarali himoya qilinishi va tiklab berilishi nazariy jihatdan ochib berilgan. Shuningdek, bir turdagi konstitutsiyaviy nazorat o'rnatilgan davlatlarda individual konstitutsiyaviy murojaatning qanday turlari yaxshi natija berayotganligi hamda qanday ko'rinishlarida fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlari poymol etilishda davom etilayotganligi qiyosiy-huquqiy tahlil etilgan. Maqola so'ngida nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlil yuzasidan xulosa taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: bilvosita konstitutsiyaviy murojaat, bevosita konstitutsiyaviy murojaat, aniq (konkret) murojaat, abstrakt murojaat, normativ konstitutsiyaviy murojaat, dastlabki so'rov, actio popularis, quasi popularis, amparo.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ОБРАЩЕНИЙ ГРАЖДАН И ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ В КОНСТИТУЦИОННЫЙ СУД

Нурмаматова Ноила Дониёровна,
магистрант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье теоретически исследуются вопросы, связанные с индивидуальными обращениями в конституционные судебные органы и проводится сравнительный анализ видов индивидуальных конституционных обращений в зарубежных странах. Различают прямые и косвенные проявления индивидуальных конституционных обращений, в статье анализируются несколько видов вышеперечисленных проявлений обращений граждан и юридических лиц в конституционный судебный орган. В странах, где виды индивидуального конституционного обжалования теоретически раскрыты и установлен централизованный или разрозненный конституционный контроль, подробно анализируется уровень эффективности индивидуального конституционного обжалования и недостатки видов обжалования. Кроме того, в статье теоретически раскрывается,

при каких видах индивидуальных конституционных обращений основные права граждан и юридических лиц эффективно защищаются и восстанавливаются конституционным судебным органом. Также проводится сравнительно-правовой анализ того, какие виды индивидуального конституционного обращения лучше всего работают в странах с таким же типом конституционного контроля, и в каких формах продолжают нарушаться права и интересы граждан и юридических лиц. В конце статьи делается вывод по теоретическому и сравнительно-правовому анализу.

Ключевые слова: *непрямая конституционная апелляция, прямая конституционная апелляция, эксплицитная (конкретная) апелляция, абстрактная апелляция, нормативная конституционная апелляция, первоначальный вопрос, actio popularis, quasi popularis, amparo.*

THEORETICAL AND COMPARATIVE-LEGAL ANALYSIS OF APPEALS BY CITIZENS AND LEGAL ENTITIES TO THE CONSTITUTIONAL COURT

Nurmamatova Noila Doniyorovna

Master's Student at Tashkent State University of Law

Abstract. *This article theoretically studies the issues related to individual appeals to the constitutional judicial bodies, and comparatively analyzes the types of individual constitutional appeals in foreign countries. There are direct and indirect manifestations of individual constitutional appeals, and the article analyzes several types of the above-mentioned manifestations of appeals of citizens and legal entities to the constitutional judicial body. In countries where the types of individual constitutional appeals are theoretically disclosed and centralized or scattered constitutional control is established, the level of effectiveness of individual constitutional appeals and the shortcomings of the types of appeals are analyzed in detail. In addition, the article theoretically reveals the types of individual constitutional appeals in which the fundamental rights of citizens and legal entities are effectively protected and restored by the constitutional judicial body. It also provides a comparative and legal analysis of what types of individual constitutional appeals work best in countries with the same type of constitutional control, and in what forms the rights and interests of citizens and legal entities continue to be violated. At the end of the article there is a conclusion on the theoretical and comparative-legal analysis.*

Keywords: *indirect constitutional appeal, direct constitutional appeal, explicit (concrete) appeal, abstract appeal, normative constitutional appeal, preliminary requests, actio popularis, quasi popularis, amparo.*

Kirish

Huquq ustuvorligini ta'minlash har bir demokratik davlat intiladigan qadriyat bo'lib, bu jarayonni mustaqil sud hokimiyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Konstitutsiyaviy sudlov organi sud hokimiyatining ajralmas qismidir. Ushbu organga turli davlat organlari yoki individual shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) murojaat qilishlari mumkin. Konstitutsiyaviy sudlov organlariga murojaat qilish subyektlarini to'g'ridan to'g'ri individual shaxslar va konstitutsiyaviy organlar murojaatlariga bo'lish mumkin [1]. Ushbu murojaatlar esa o'z o'rnida sudlarning, boshqa davlat organlarining, fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z ichiga oladi [2].

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida fuqarolar va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy sudlov organlariga murojaat qilishining turlari nazariy jihatdan yoritishga, xorij mamlakatlarida qanday turdagi konstitutsiyaviy murojaatlar o'rnatilgani, qanday ko'rinishdagi konstitutsiyaviy murojaat turlarida fundamental huquqlar samarali himoya qilinishi tahlil qilishga harakat qilindi. Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning analiz, sintez, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Individual shaxslarning konstitutsiyaviy sudlov organlariga murojaat qilishi ikki ko'rinishda: bevosita va bilvosita tarzda amalga oshiriladi. Bilvosita murojaat qilishda har qanday shaxsning konstitutsiyaviy sudlov organiga shikoyati konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat qila oluvchi davlat organlari orqali yetkaziladi. Bevosita murojaat qilishda individual tarzdagi har qanday murojaat konstitutsiyaviy sudlov organiga uchinchi shaxslar ishtirokisiz yetib boradi.

Bilvosita			Bevosita								
Aniq (konkret) keysga asoslangan			Abstrakt			Individual shikoyat/ aniq (konkret) keysga asoslangan					
Dastlabki sud protsesslari						Normativ aktlarga qarshi			Individual aktlarga qarshi		
Ombudsman	Dastlabki sorov	Istisno/konstitutsiyaga ziddlik e'tirozi	Actio popularis	Quasi popularis/ qonuniy qiziqish	Shaxsiy taklif	Normativ konstitutsiyaviy murojaat	Rossiya: individual murojaat	Ukraina: konstitutsiyaviy norozilik/iltimosnoma	Amparo	Konstitusion qayta ko'rib chiqish	To'liq konstitutsiyaviy shikoyat

Ushbu jadvalda ikki xil murojaat qilish usuli ko'rsatib berilgan: birinchisi, konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirishga bilvosita murojaat etishda vositachi sifatida jalb qilinganlar; ikkinchisi, konstitutsiyaviy nazorat uchun bevosita murojaat qilgan individual shaxslar [3].

Endigi navbatda, fuqarolar va yuridik shaxslarning, bir so'z bilan aytganda, individual shaxslarning Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish yo'llari bilan birma-bir batafsil tanishamiz. Dastlab, bilvosita murojaat qilishning "dastlabki so'rovlar" ko'rinishiga to'xtalsak.

Dastlabki hal qilish protseduralari bilvosita murojaat qilishning eng keng tarqalgan turlaridan biridir. Umumyurisdiksiya sudlari normativ aktning aniq ishda qo'llanilishida konstitutsiyaga muvofiqlik yuzasidan shubha qilsa, konstitutsiyaviy sudga dastlabki tarzda murojaat qiladi. Ushbu protseduraning afzalligi shundaki, ushbu sudlar shaxsning shikoyati yuzasidan huquqiy jihatdan yaxshi ma'lumotga ega va qonuniy kuchga ega va asosli so'rovlar bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qila olishadi. Ushbu jarayonda umumyurisdiksiya sudlari dastlabki filtr bo'lib xizmat qiladi va suiiste'molliklar yoki takroriy so'rovlar sonini kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, qarorning dastlabki tartiblari abstrakt nazorat bilan bog'liq kamchiliklarni ham to'ldirishga xizmat qiladi, ya'ni aniq keystdan kelib chiqadigan qoidalar qaysi norma qayerda qo'llanilishi yuzasidan fikr-mulohazalarni keltirib chiqaradi [4]. Bu afzallik ba'zi sud tizimlarida kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Birinchidan, dastlabki qaror chiqarish jarayonlarining samaradorligi ko'p jihatdan umumyurisdiksiya sudyalarining potensial konstitutsiyaga zid bo'lgan normativ hujjatlarni aniqlash qobiliyati va tayyorligi hamda konstitutsiyaviy sudga dastlabki savollarni bera olishi bilan bog'liq. Ikkinchidan, mazkur protseduradan foydalanadigan shaxslar darajasi kamroq hisoblanadi. Ko'pgina davlatlarda dastlabki qaror chiqarish tartiblari mavjud, faqatgina Portugaliya va Shveysariya bundan mustasno [5]. Litvada esa dastlabki murojaat qilish konstitutsiyaviy sudga individual tarzda shikoyat qilishning yagona turi hisoblanadi. Belarusiyada turli davlat organlariga murojaat qilishdan tashqari,

ishni ko'rib chiqishda dastlabki so'rovlar konstitutsiyaviy sudga shaxsiy murojaat qilishning yagona turini tashkil qiladi. Markazlashmagan konstitutsiyaviy nazorat tizimi o'rnatilgan davlatlarda umumyurisdiksiya sudlarida dastlabki murojaat qilish usuli nisbatan kam uchraydi. Ko'pgina davlatlarda (masalan, Albaniya, Jazoir, Andorra, Armaniston, Belgiya, Bolgariya, Xorvatiya, Chexiya Respublikasi, Fransiya, Vengriya, Litva, Moldova, Polsha, Slovakiya, Ispaniya, Turkiya va Ukraina) protsess ishtirokchilari oddiy sudlarga dastlabki so'rovni konstitutsiyaviy sudga berishni taklif qilishlari mumkin (murojaat konstitutsiyaviy sudlov organiga kiritilgan vaqtdan umumyurisdiksiya sudida ushbu masalani ko'rib chiqish to'xtatib turiladi). Bu jarayonda dastlabki so'rov konstitutsiyaviy sud tomonidan rad etilishi yoki qabul qilinishidan qat'i nazar sudyaning dastlabki so'rov bilan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat qilish huquqini cheklamaydi. Albaniya, Andorra, Armaniston, Avstriya (birinchi instansiya sudlarini istisno qilgan holda), Belgiya, Belarus, Bosniya-Gersegovina, Xorvatiya, Chexiya, Gruziya, Vengriya, Italiya, Lixtenshteyn, Litva, Lyuksemburg, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Ruminiya, Rossiya, Ispaniya, Makedoniya Respublikasi, Turkiya va Ukrainaning barcha oddiy sudlari konstitutsiyaviy sudga savol berish orqali dastlabki qaror chiqarish jarayonini boshlash vakolatiga ega.

Ayrim xorijiy mamlakatlarda dastlabki so'rov bo'yicha davlat organlarining Konstitutsiyaviy sudlarga murojaati cheklanadi. Bundan ko'zlangan maqsad so'rovlar sifatini saqlash hisoblanadi. Masalan, Avstriya (qonunlar bo'yicha), Ozarbayjon, Belarus, Bolgariya, Gretsiya, Latviya, Moldovada esa faqat yuqori sudlar dastlabki so'rovlar bilan chiqish huquqiga ega. Kiprda faqat oilaviy masalalar bo'yicha yurisdiksiyaga ega bo'lgan sudlar dastlabki savollar bilan murojaat qilishlari mumkin.

Rossiya va Belarusda oliy sudlar ham abstrakt konstitutsiyaviy murojaatlarni ko'rib chiqish tartibini boshlash huquqiga ega. Fransiyada dastlabki qaror chiqarish uchun ikki darajali ustuvor filtr tizimi o'rnatildi: birinchidan, har qanday umumyurisdiksiya sudyasi faqat ishda ishtirok etuvchi tomonlardan birining iltimosiga binoan dastlabki so'rovni yuqori sudga yuborishi mumkin; keyingisi Konstitutsiyaviy Kengashga eng yuqori sud dastlabki so'rovni berishi mumkin. Bu usul dastlabki so'rovlar sonini kamaytirish uchun samarali vosita bo'lsa-da, konstitutsiyaviy sudlov organlarining katta ish hajmi bilan ishlashiga olib keladi (har bir shaxs sudlar ketma-ketligi kabi oddiy narsaga amal qilishi kerak), bu esa o'z o'rnida umumyurisdiksiya sudlarining konstitutsiyaviyligiga jiddiy shubha bor qonunni uzoq vaqt davomida qo'llashlariga olib keladi. Shu sababdan, inson huquqlarini himoya qilish nuqtayi nazaridan barcha darajadagi sudlarga konstitutsiyaviy sud ega bo'lgan vakolatlarga ruxsat berish maqsadga muvofiqroq va samaraliroqdir degan fikrlar ham ilgari suriladi. Shunday bo'lsa-da, boshqa muqobil variantlar ham mavjud. Masalan, Germaniyada barcha sudlar konstitutsiyaviy huquqning barcha masalalarini hisobga olishi shart va agar ular ma'lum bir norma konstitutsiyaga zidligiga ishonch hosil qilsalar va hatto shubhalar yetarli bo'lmagan taqdirda ham ular Konstitutsiyaviy sudga savol bilan murojaat qilishga majburdirlar. Bu barcha sudlarga ham dastlabki so'rovlarni asossiz ravishda uzaytirmasdan konstitutsiyaga zid vaziyatlarni kamaytirishga yordam beradi [6].

Bilvosita murojaat qilishning yana bir ko'rinishi Ombudsmanlar orqali murojaat qilish hisoblanadi. Venetsiya Komissiyasiga a'zo va kuzatuvchi davlatlarning aksariyatida ombudsman instituti mavjud (mediator, parlament komissari va boshqalar) va ular odatda milliy parlamentlar tomonidan tayinlanadi [7].

Ombudsmanlar mustaqil va xolisdir. Ko'pgina davlatlarda, Ombudsmanlar inson huquqlari poymol bo'lgan taqdirda huquqiy yechimlarni topish vazifasi yuklatilgan inson huquqlari himoyachilari (Xalq advokati va boshqalar) hisoblanadilar (jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham).

Inson huquqlarini himoya qilish nuqtayi nazaridan, Venetsiya komissiyasi quyidagilarni tavsiya qiladi: "Ombudsman yoki Inson huquqlari himoyachisining vakolati – qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaga muvofiqligi yoki umumiy masalalar bo'yicha abstrakt qaror (hali amalda qo'llanmagan norma yuzasidan) va inson huquqlari va erkinliklariga daxldor muammolarni o'zida aks ettiruvchi ma'muriy hujjatlar yuzasidan mamlakat konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilish imkoniyatini o'z ichiga olishi kerak. Umumyurisdiksiya sudlarining asosiy vazifasi noqonuniy

xatti-harakatlarga qarshi himoya vositalarini taqdim etishdir. Biroq, konstitutsiyaviy sud alohida ishlarining konstitutsiyaviyligini aniqlash maqsadida konstitutsiyaviy sudga olib chiqish huquqini berish mantiqan to'g'ridir. Har qanday holatda, Ombudsman orqali konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish unga faqat bilvosita murojaat sifatida baholanadi. Bu mexanizmni to'g'ridan to'g'ri murojaatga almashtirish mumkin emas, lekin uni qo'shimcha jarayon sifatida ko'rish kerak. Bu esa davlatning urf-odati va o'rtaga tashlangan vaziyatdan kelib chiqib bajariladi.

Markazlashmagan konstitutsiyaviy nazorat tizimlarida ombudsman, agar unga muayyan masala bo'yicha tashabbus bilan chiqish vakolati berilgan bo'lsa, sud jarayoni Oliy sudda emas, balki vakolatli umumyurisdiksiya sudida amalga oshirilishi kerak (masalan, Finlandiyadagi ixtisoslashgan Ombudsman). Braziliya, qat'iy markazlashmagan konstitutsiyaviy nazorat bo'lmasa ham, mamlakat 2009-yilda o'z qonunchiligini o'zgartirdi va Xalq himoyachisi endi konstitutsiyaviy huquqlarni himoya qilish bo'yicha sudda ish yuritish bo'yicha qonuniy tashabbus ko'rsatishi mumkin.

Konstitutsiyaviy nazoratning markazlashgan tizimlarida ombudsman konstitutsiyaviy sudlov organlariga masala kiritish vakolatiga ega bo'lishi mumkin. Misol tariqasida, Xorvatiya, Estoniya, Chernogoriya, Portugaliya, Sloveniya, Ispaniya va Makedoniya Respublikasi ombudsmanlari odatda asosiy huquqlarni himoya qilish uchun bunday sud jarayonini boshlashi mumkin va buni aniq keys bo'lmasa ham amalga oshirishi mumkin [8].

Demak, individual shaxs o'zi normal holatda yeta olmaydigan konstitutsiyaviy sudga ombudsman yordamida bilvosita bo'lsa ham murojaat qila oladi. Ya'ni, ombudsman individual shaxslarga konstitutsiyaviy sudga shikoyat qilish uchun yana bir yo'l hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlangan organ va tashkilotlardan tashqari, boshqa ba'zi davlat organlari ham konstitutsiyaviy sudlov organlariga murojaat qilishda ko'prik vazifasini o'tashi mumkin. Ayrim mamlakatlarda individual shaxslar prokuratura orqali konstitutsiyaviy sudga bilvosita murojaat qilish huquqiga ega (Armaniston Konstitutsiyasining 101-moddasi, Ozarbayjon Konstitutsiyasining 130-moddasi, Bolgariya Konstitutsiyasining 150-moddasi). Ayrim mamlakatlarda (masalan, Albaniya, Andorra, Armaniston, Avstriya, Belgiya (Parlament rahbari a'zolarining uchdan ikki qismining iltimosiga binoan konstitutsiyaviy sud oldida normativ hujjatlar yuzasidan masala kiritishi mumkin), Xorvatiya, Chexiya Respublikasi, Fransiya, Portugaliya, Polsha, Latviya, Ispaniya, Moldova, Ruminiya, Rossiya, Turkiya, Ukraina va hokazo), ma'lum miqdordagi parlament a'zolari yoki ba'zi boshqa organlar (masalan Prezident, Bosh vazir va h.k.) ham konstitutsiyaviy sudga normativ hujjatlar ustidan shikoyat qilishi mumkin. Masalan, Belarusda ombudsman yo'q. Jismoniy shaxslar Konstitutsiyaviy sudga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilish huquqiga ega bo'lmaganlar bilvosita murojaat qilish huquqiga ega. Ular buni o'zlarining tashabbuslari bilan qonunlarning konstitutsiyaviyligini yuqori davlat organlarining (ya'ni, Belarus Respublikasi Prezidenti, ikkala parlament palatasi – Palata vakillar kengashi va Respublika Kengashi – Respublika Oliy sudi, Belarus Respublikasi Oliy xo'jalik sudi va Vazirlar Kengashi) e'tiboriga havola qilish orqali amalga oshiradilar.

Shu o'rinda, fuqarolar va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy sudlov organlariga bevosita murojaat qilish bilan bog'liq masalalarga to'xtalsak. Bevosita murojaat qilishning eng mashhur usuli bu actio popularis hisoblanadi. Actio popularis har bir shaxs normativ aktga qarshi ushbu hujjat kuchga kirgandan so'ng, unga hozir va bevosita ta'sir ko'rsatganligini isbotlash kerak bo'lmagan holda choralar ko'rish huquqiga ega ekanligini anglatadi. Kelzen aytganidek, actio popularis keng qamrovli konstitutsiyaviy nazoratning eng samarali kafolatidir, chunki har bir shaxs konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishi mumkin. Ushbu nazariya tarafdorlari har bir fuqaroning burchi konstitutsiyani himoya qilish ekanligini va shikoyatchi o'z asosiy huquqlarining buzilishi qurboni bo'lishi shart emas, deya ta'kidlashadi [9]. Actio popularis Lixtenshteyn, Chili, Malta [10] va Peruda muayyan darajada rol o'ynaydi, sababi bu yerda actio popularis tamoyilining amal oshirilishi uchun bir nechta shartlar bajarilishi kerak. Shuningdek, actio popularis Xorvatiya, Gruziya, Vengriya [11] va Makedoniya Respublikasida qonunchilikni tartibga keltirishda hissa qo'shdi. Janubiy Afrikada shaxs jamoat manfaatlarini himoya qilish uchun konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishi mumkin. Biroq Kelzen actio popularis konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish uchun amaliy vositalarni taqdim etmaydi

degan xulosaga keldi, chunki u har qanday shikoyatlarning jalb qilinishiga sabab bo'lishi mumkin [12]. Xorvatiyada *actio popularis* konstitutsiyaviy sudning haddan tashqari ish hajmining ortib ketishiga olib keldi. Bu masala bo'yicha Venetsiya Komissiyasi ham o'zining tanqidiy fikrlarini bildirgan edi [13]. Shuning uchun ko'pchilik mamlakatlar *actio popularis* konsepsiyasini konstitutsiyaviy sudga nisbatan e'tirozlarning ko'payishiga sabab bo'lishi mumkinligini inobatga olib qonun hujjatlariga singdirmaydilar. Isroilda individual shaxslar konstitutsiyaviy huquqlari poymol qilingani munosabati bilan Oliy sudga murojaat qilishlari mumkin. Bundan tashqari, turli inson huquqlari yoki boshqa tashkilotlar keng jamoatchilikni jalb qilib "ommaviy ariza beruvchilar" sifatida petitsiya bilan murojaat qilishlari mumkin. Bu guruhlar petitsiyaga shaxsiy qiziqishlarini bildirishlari talab etilmaydi, bunda e'tiroz faqat hukumat yoki davlatning qonunchilik hujjatlariga qarshi umumiy bo'lishi zarur.

Abstrakt konstitutsiyaviy nazorat (aniq huquqiy vaziyatga asoslanmagan holda sud protsesslarisiz muayyan bir qonunning konstitutsiyaviyligi masalasi ko'rib chiqiladi.) bo'yicha individual murojaat qilishning yana bir ko'rinishi "individual taklif" hisoblanadi. Bunda jismoniy shaxslar konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat qilib muayyan qonunning konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirishni so'rashadi. Biroq suddan sud protsessini boshlashini talab qila olmaydi. Ushbu usul g'ayrioddiy bo'lib, konstitutsiyaviy sudni *proprio motu* tamoyili asosida ish yuritishga chorlaydi, ya'ni sudning qonunni ko'rib chiqish uchun xohishini uyg'otadi. Yana bir murojaat qilish shakli quasi *actio popularis* hisoblanib, quasi *actio popularis* instituti abstrakt *actio popularis* va normativ konstitutsiyaviy shikoyat o'rtasidagi pozitsiya hisoblanadi.

Quasi *actio popularis* ko'proq cheklovchi bo'lib, *actio popularis* bilan bog'liq ba'zi muammolarning oldini olish maqsadida o'rnatilgan. Unga ko'ra, arizachi shikoyat qilayotgan normasidan muayyan qonuniy manfaatdor ekanligini isbotlashi kerak. Arizachilar faqat qonun normalari ularning huquqlari, qonuniy manfaatlari yoki qonuniy pozitsiyasiga zarar yetkazayotganligini aniqlashi kerak. Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishning bunday turi, masalan, Gretsiyada mavjud.

Yana bir usul normativ konstitutsiyaviy shikoyat bo'lib, shaxsga huquqiy aktga asoslangan individual harakat orqali o'zining subyektiv asosiy huquqlar buzilishi ustidan shikoyat qilish huquqi beriladi. Bunda, ishni ko'rib chiqish aniq keys bilan bog'liq bo'ladi. Biroq faqat normativ konstitutsiyaviy shikoyatni ta'minlaydigan tizimlarda normativ aktni qo'llaydigan individual aktlar ustidan konstitutsiyaviy sudlov organlariga shikoyat qilish mumkin emas va konstitutsiyaviy sud ushbu normativ aktlarning ijrosi ta'minlanishi ustidan nazorat olib bormaydi.

Bu esa o'z o'rnida agar buzilgan fundamental huquq shu turdagi normativ aktda tartibga solingan bo'lsa, konstitutsiyaviy sudlov organlari ushbu huquqlarning samarali himoyasini ijro orqali ta'minlab bera olmaydi. Normativ shikoyatlar ko'pincha boshqa murojaat turlari bilan birga qo'llaniladi, masalan, Armaniston, Avstriya, Belgiya [14], Gruziya, Vengriya, Polsha va Latviya, Lyuksemburg, Rossiya, Ruminiya, Estoniyada murojaat qilishning cheklangan shakli joriy qilingan, bu davlatlarda parlamentning ayrim qarorlari va prezident qarorlari ustidan shikoyat qilinishi mumkin. Hozirgi fransuz tizimi normativ konstitutsiyaviy shikoyatga yaqin turda bo'lib, Konstitutsiyaviy Kengash qonunchilikni konstitutsiyaviy nazorat qilish huquqiga ega va bu mavhum nazorat hisoblanadi, ya'ni agar akt konstitutsiyaga zid deb topilsa, akt fransuz huquqiy bazasidan olib tashlanadi. Yana bir murojaat turi Ukraina qonunchiligida mavjud bo'lib, unga ko'ra, agar fuqaro muayyan huquq normasining turlicha talqin qilinishi uning huquqlarini buzyapti deb hisoblasa, Konstitutsiyaviy sudga ushbu qonunga sharh berishni so'rab murojaat qilishi mumkin. Bu murojaat turi moddiy jihatdan normativ konstitutsiyaviy shikoyat vazifasini bajaradi.

Aytish joizki, bugungi kunda deyarli hech bir davlatda individual shaxslarga to'liq konstitutsiyaviy shikoyat qilish huquqi berilmagan, ya'ni fuqarolar konstitutsiyaviy sudga normativ huquqiy hujjat asosida qabul qilingan individual akt va quyi sud qarorlari ustidan shikoyat qilishi mumkin emas. Ammo, real hayotda fundamental huquqlar, asosan, individual aktlar tufayli buziladi. Venetsiya komissiyasi ham to'liq konstitutsiyaviy shikoyatlarni nafaqat fundamental huquqlarni har tomonlama himoya qilishi, bundan tashqari, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi bilan birgalikda inson huquqlari bilan bog'liq masalalarni milliy darajada hal qilishni qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosalar

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, konstitutsiyaviy sudlov organiga individual tarzda murojaat qilishning bevosita va bilvosita turlari va ularning bir qancha ko'rinishlari mavjud. Bilvosita murojaat jismoniy va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy sudlov organiga quyi sudlar orqali dastlabki so'rov yuborish, shuningdek murojaatning ombudsman, davlat organlari, deputat va senatorlar orqali amalga oshirish ko'rinishlari ham mavjud ekan. Bilvosita murojaat qilishning ustun tomoni individual murojaat konstitutsiyaviy sudlov organiga ishning mazmuni bilan yaqindan tanishib chiqqan va uni huquqiy asoslay oladigan mansabdor shaxslar tomonidan yetkaziladi. Shuningdek, bilvosita murojaatning konstitutsiyaviy sudlov organiga foydali tomoni ham mavjud bo'lib, individual shaxs va konstitutsiyaviy sudlov organi o'rtasida turgan vositachi organ yoki mansabdor shaxs murojaatning konstitutsiyaviy sudlov organiga taalluqliligi va fundamental huquqlarning buzilishi bo'yicha filtr vazifasini o'taydi. Bu esa o'z o'rnida, konstitutsiyaviy sudlov organlarida ish hajmining ortib ketmasligiga xizmat qiladi. Ammo bilvosita murojaatning kamchiligi ham mavjud bo'lib, odatda bilvosita murojaatning samaradorligi individual shaxs murojaat qilgan organ yoki mansabdor shaxsning shikoyatni konstitutsiyaga nomuvofiqligini anglay olishida va vositachi sifatida uni konstitutsiyaviy sudlov organiga yetkaza olishda "o'zini olib qochmasligi" da. Bevosita murojaatning *actio popularis*, *quasi actio popularis*, normativ akt ustidan shikoyat qilish va individual taklif bilan chiqish kabi ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'z ta'sir kuchiga ega va mamlakatlarning qonunchiligida ham samaradorlik darajasiga qarab tartiblar o'rnatilgan. Murojaat turi qanday bo'lishidan qat'i nazar, ko'zlangan maqsad murojaatlarning o'z vaqtida, shaxslarni ortiqcha ovora qilmagan holda, buzilgan huquqlarning tiklanishiga va konstitutsiyaga nomuvofiqlik holatlarining bartaraf etilishiga qaratilishi kerak bo'ladi.

REFERENCES

1. Kosimov B., 2020. *Verxovenstvo prava i pandemiya koronavirusa COVID-19. Review of law sciences*, (2), pp. 64-68.
2. Kosimov, B., 2020. Threats to judicial independence: reflections on the US experience. *TSUL Legal Report International electronic scientific journal*, no. 1 (1).
3. Harutyunyan, G., Nussberger, A. and Paczolay, P., 2009. Study on Individual Access To Constitutional Justice. Venice Commission [European Commission for Democracy Through Law], 538, pp. 1-172.
4. Martin C.H., 2004. *Comparative Human Rights Jurisprudence in Azerbaijan: Theory, Practice and Prospects*. *J. Transnat'l L. & Pol'y*, 14, p.215.
5. Bericht des Schweizerischen Bundesgericht für die VII. Konferenz der europäischen Verfassungsgerichte, p. 17. Available at: <http://www.confcoconsteu.org/reports/Zwitzerland-DE.pdf>, (accessed 02.06.2009).
6. Harutyunyan G., Nussberger, A. and Paczolay, P., 2009. Study on Individual Access To Constitutional Justice. Venice Commission [European Commission for Democracy Through Law], 538, pp. 1-172.
7. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar to'g'risida"gi Parij tamoyillariga ko'ra, BMT Bosh Assambleyasining 48/134-sonli qarori, 20.12.1993.
8. G. Kucsko-Stadlmayer, "The Competences of European Ombudspersons – Description and Analysis of the Status Quo. Available at: <http://www.ioi-europe.org/index2.html>.
9. Van Aaken, A., 2006. Making International Human Rights Protection. In *Conferences on new political economy* (Vol. 23, p. 29). Mohr Siebeck.
10. Brunner, G., 2002. *Der Zugang des Einzelnen zur Verfassungsgerichtsbarkeit im europäischen Raum*.

11. Czarnota A., 2007. Rights before courts: A study of constitutional courts in postcommunist states of Central and Eastern Europe.

12. Kelsen H. Le contrôle de la constitutionnalité des lois: quelle procédure?. Actes du colloque international L'effectivité des droits fondamentaux dans les pays de la communauté francophone [The contradictory nature of the Constitution: the law of the Community]. Port-Louis (Île Maurice), 29-30 septembre, 1er octobre 1993, p. 401. Available at: <http://www.bibliotheque.refer.org/livre59/l5905.pdf/> (accessed 07.02.2009).

13. Suchocka, H., 2016. Opinion of the Venice Commission on the place of the Constitutional Judiciary in a Democratic State. Ruch prawniczy, ekonomiczny i socjologiczny, (1).

14. Rigaux, M.Fr., 2008. Introduction of a Constitutional Review of Laws: Benefit, Purpose and Modalities, Report for the seminar on constitutional jurisdiction, Ramallah, (1).

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov
Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.06.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 15,24 b.t. Adadi: 100.